



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCE.uz

30 ИЮН
№29

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
11-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
29-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-11**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
29-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-11**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 29-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

1. Akbarov Saydullo Sobirjonovich	
VOLEYBOL O'YINI TEXNIKASI.....	7
2. Ashurmatov Rustam	
MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI	9
3. Sattorova Sharofat Mamaraimovna	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIMIY FAOLIYATLAR	
JARAYONIDA BOLALAR IJODKORLIGINI OSHIRISHDA O'YINNING	
AHAMİYATI	11



ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

VOLEYBOL O'YINI TEXNIKASI

Akbarov Saydullo Sobirjonovich

Namangan viloyati Pop tumani
2-son umumiy o'rta ta'lif mabtabning
jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada voleybol o'yinining mohiyati, voleybol o'yini texnikasi va bu texnikaning ayrim qismlari, harakat fazalari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: voleybol, o'yin malakalari, o'yin texnikasi, faza, hujum, himoya, harakat texnikasi.

Voleybol o'z mohiyati, mazmuni va xususiyati bilan boshqa sport o'yinlaridan farq qiladi. Voleybol o'yini nisbatan kichik bo'lgan, ya'ni o'rtasidan teng ikkiga bo'lingan 18x9 metrli to'g'ri burchakli to'rburchak shaklidagi maydonchada amalga oshiriladi. Zamonaviy voleybol turli o'yin malakalari va taktik kombinatsiyalarga nihoyatda boy bo'lib, o'ta katta shiddat va tezlikda o'tadi. Binobarin, voleybolning yuqorida zikr etilgan o'ziga xos xususiyatlari o'yinchilardan mukammal takomillashgan texnik mahorat talab qiladi. Musobaqa o'yinlarida texnik mahorat qanchalik keng va tashqi ta'sirlarga nisbatan mukammal shakllangan bo'lsa, shunchalik g'alabani qo'lga kiritish imkonи ko'p bo'ladi.

O'yin texnikasi – bu bir vaqtning o'zida ketma-ket va muayyan maqsadli tartibda ijro etiladigan ixtisoslashgan harakat yoki harakatlar majmuasidir. O'yin texnikasi – harakatni aniq, tez, yengil, vaziyatga muvofiq, kam kuch sarf etib yuqori samarada bajarishga mo'ljallangan bo'lishi lozim.

Texnikaga oid barcha vositalar borki (samolyot, avtomobil, raketa, televizor, sovutgich, soat va hokazo), ularning texnik pasporti mavjud bo'lib, unda mazkur vositaning texnik ko'rsatkichlari va o'chamlari berilgan bo'ladi. Sportda ham muayyan harakat malakasining o'ziga xos texnik ko'rsatkichlari, o'chamlari va uni ijro etishda shakllangan texnik tartibi mavjuddir.

Voleybol o'yini texnikasi o'yinni olib borish uchun zarur bo'lgan harakat usullari majmuasidan iboratdir. Harakatlar texnikasi turli vaziyatlarda maqsadga muvofiq, samarali harakat qilish bilan baholanadi. O'yindagi har bir texnik usulni bajarish bir-biri bilan uzviy bog'langan harakatlanish tizimidan tashkil topadi. Harakat texnikasi harakat vazifalarini muayyan usul bilan hal qilish uchun zarur va yetarli bo'lgan harakatning dinamik va kinematik xususiyatlaridir (kuchlarning muayyan izchilligi, gavdaning ayrim qismlari o'rtasidagi muvofiqlik va shu kabilar).

Texnikaning asosiy qismi – ma'lum bir harakatdagi asosiy mexanizmning eng muhim va hal qiluvchi qismidir. Texnikaning asosiy qismini bajarish nisbatan qisqa vaqt oralig'ida katta kuch sarflanishi bilan ifodalanadi.

Texnikaning detallari – harakatning asosiy mexanizmini buzmaydigan ikkinchi darajali xususiyatdir. Texnika detallari turli sportchilarda turlicha bo'lib, bu ularning morfologik va funksional imkoniyatlari bog'liq bo'ladi. Texnik harakatlarni bajarishda harakatlarning vaqt jihatidan ma'lum bir fazalari farqlanadi. Odatda, harakatlarning uch fazasi: tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi fazalarini belgilab qo'yish mumkin. Tayyorgarlik fazasining ahamiyati harakatni bosh fazada bajarish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Bu sharoitlar yugurib kelish, sakrash, aylanma harakatlarni (to'siq qo'yganda, koptokni o'yinga kirtganda, hujum zarbasini berishda) bajarish bilan yaratiladi.

Asosiy fazadagi harakatlar bevosita asosiy harakat vazifalarini hal qilishga qaratiladi. Biodinamik nuqtai nazaridan bu fazadagi eng muhim narsa harakatlantiruvchi kuchlardan tegishli vaziyatda, tegishli yo'nalishda samarali foydalanishdan iboratdir.

Yakunlovchi fazadagi harakatlar gavda muvozanatini saqlash maqsadida so'nib boradi yoki keskin tormozlanadi.



Voleybol juda dinamik o‘yin bo‘lganligi sababli voleybolchi turli texnik usullarni egallashi, o‘yin vaziyatidan kelib chiqqan holda ularni tanlay olishi va uni tez, aniq bajarishi lozim. Bu esa o‘yinchining texnik mahoratini belgilaydi. Yuqori texnik mahorat belgilari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- harakat usullarining aniq va samarali bajarilishi;
- xalal beruvchi omillar (charchash, tashqi sharoitning salbiy ta’sirlari) mavjudligida harakatlarning bajarilish barqarorligi;
- raqib harakatlariga qarab javob harakatlarini tanlash, ularni qayta qurish va bunda harakat qismlarini boshqara olish;
- usullarning bajarilish ishonchliligi.

Voleybol taraqqiyotining har xil davrlarida texnik harakatlarni bajarish usullari, talablari, shakli, mazmuni o‘zgaradi va takomillashib boradi. Texnik usullarning o‘zgarishiga o‘yin qoidalarining o‘zgarishi, taktik harakatlarning takomillashuvi, o‘yinchilar jismoniy tayyorgarligi darajasining o‘sib borishi asosiy sabab bo‘ladi. Hujum va himoyadagi o‘yin dinamikasining o‘sishi, harakatlar potensialining oshib borishi, hujum va himoyadagi kombinatsiyalar arsenalining kengayishi ham texnik usullarni yangilashga yoki qayta qurishga turtki bo‘ladi.

Shunday bo‘lsada, o‘yin texnikasida foydalaniladigan usullarning bundanda samaraliroq imkoniyatlari yo‘q deb bo‘lmaydi. Malakali sportchilarning funksional va jismoniy imkoniyatlari o‘yin texnikasiga yangi, ilg‘or usullarni kiritish va uni ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratadi.

O‘yin texnikasini tasniflash – ularning shakli, mazmuni, qo‘llaniladigan usullarning nimaga mo‘ljallanganligi, harakatlarning bir-biriga bog‘liqligi, harakatlarning kinematik va dinamik tuzilishiga qarab ma’lum guruhlar va bo‘limlarga ajratilishidir.

Voleybol texnikasi ikkita katta bo‘lim: hujum va himoya texnikalariga bo‘linadi. O‘z navbatida, yuqoridagi bo‘limlar ham texnik usullarning shakli va mazmuniga ko‘ra bir qancha guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhda texnik harakatlarning o‘ziga xos bajarish usullari mavjud bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.R.Kazakov, A.Qazaqbaev, B.A. Kazakov Voleybol o‘yini texnikasiga o’rgatishda maxsus mashqlardan foydalanish (o‘quv-metodik qo’llanma).

2. www.sport.uz



MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI

Ashurmatov Rustam
TKTI Yangier filiali, assistent o'qituvchisi
rustamjon1395@mail.com, +998990193995

Annotatsiya: Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida organik yoqilg'i manbalaridan asta sekinlik bilan voz kechib Muqobil energiya manbalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqlada muqobil energiya manbalari va ulardan foydalanish ochib berilgan.

Kalit so'zlar: muqobil energiya, quyosh suv isitgichlari, quyosh parniklari va teplitsalari, quyosh quritgichlari, quyosh suvsovutgichlari,

Hozirgi kunda bir qator rivojlangan davlatlar va shu jumladan bizning yurtimizda ham uzoq muddatga mo'ljallangan energetik dasturlarda muqobil energiya manbalaridan keng miqyosda foydalanish, shu bilan birgalikda organik yoqilg'i – energetika resurslarining zaxiralardan foydalanishni kamaytirish, ularning tannarxi ortib borishi va "toza" ekologik innovatsion texnologiyani yaratish asosiy muammo bo'lib hisoblanadi. Energetik resurslarining cheklanganligi va organik yoqilg'ilarning tannarxi ortib borishi, hamda ekologik ta'sirni o'zgarishi fermer xo'jaliklarida muqobil bo'lgan energiya manbalaridan foydalanish zaruratini tug'diradi.

Muqobil energiya turlaridan biri quyosh energiyasi bo'lib hisoblanadi. Quyosh energiyasidan foydalanish ishlarini O'zbekistondagi holatini tahlili shuni ko'rsatadi, uni chet ellardagi ilg'or shunday qurilmalar bilan solishtirilganda, raqobatbardosh, ekologik toza bo'lgan, quyosh suv isitgichlarini zamonaviy texnologik vositalar yordamida qurish zarur ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston hududi nisbatan ekologik toza va bitmas-tuganmas quyosh energiyasidan foydalanish uchun qulay sharoitda joylashgan. Shu sababli quyosh energiyasidan foydalanishning turli sohalarda keng foydalanilayotganini ko'rshimiz mumkin. Quyosh energiyasidan foydalanib ishlaydigan qurilmalariga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Yuqori temperaturali quyosh qurilmalari.
2. Past temperaturali quyosh qurilmalari.

Yuqori temperaturali quyosh qurilmasida quyosh radiatsiyasi zichligi tabiiy zichlikka nisbatan 102-104 marta kattalashtirib bir joyga to'planadi. Buning uchun bir yoki bir necha ko'zgu yoki linzalar to'plamidan foydalaniladi.

Past temperaturali quyosh qurilmalarining o'zi bir necha turga bo'linadi.

1. Quyosh suv isitgichlari.
2. Quyosh suv chuchutgichlari.
3. Quyosh parniklari va teplitsalari.
4. Quyosh quritgichlari.
5. Quyoshsovutgichlari.

Past temperaturali quyosh qurilmalarida tabiiy zichligi-0.8 kvt/m² quyosh radiatsiyasidan foydalaniladi. Bunday quyosh qurilmalarida olinadigan 60-70 S li issiq suv yordamida binolarni isitishda, issiq suv taminotida foydalanish mumkin. Bundan tashqari quyosh batareyalari ham mavjud. Bularda amaliy tadqiqotlar optimal parametrga ega bo'lgan quyosh yelementlari konstruksiyalarini loyihalash, tayyorlash, ular xususiyatlarini o'rganish, quyosh yelementlari batareyalari va fotoelektrik qurilmalar texnologiyasini ishlab chiqish va ular asosida har xil konstruksiyali, turli sharoitda ishlaydigan, har xil quvvatli iste'molchilarga mo'ljallangan elektr manba'lari tizimini ishlab chiqarishni amalga oshirishga bag'ishlanadi. Fotoelektrik batareyalar yoki quyosh batareyalari murakkab qurilmalar bo'lib, ular ma'lum tartibda ulangan quyosh yelementlaridan va bu elementlar joylashtirilgan eltuvchi asoslardan iboratdir. Quyosh batareyalarini tayyorlashning texnologiyasini yaratish uchun quyosh yelementlarining potensial imkoniyatlaridan to'la foydalanish maqsadga muvofiqli. Buning uchun quyosh batareyasini tayyorlash texnologiyasi batareya quvvati yuqotishlarni maksimal kamaytirish imkonini berishi zarur. Quyosh batareyalarida quvvatning yuqotilishi ikki xil bo'ladi, bular optik va elektrik yuqotishlardir.

Ushu quyosh batareyalari, yuqori temperaturali quyosh qurilmalarining tannarxi yuqori bo'lganligi sababli keng foydalanishda noqulayliklar bo'lmoqda. Past temperaturali quyosh qurilmalari esa ko'proq mahalliy xom-ashyolardan yasalganligi sababli tannarxi bir muncha



arzonga tushadi va foydalanish uchun qulay. Shu sababli past temperaturali quyosh qurilmalarini ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirishimiz zarur.

Mana shunday dolzarb masalalar va ularning yechimlari bilan shug‘ullanayotgan fizikaning geliotexnika bo‘limi rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A .T. Mamadolimov, M.N. Tursunov “YARIM O‘TKAZGICHLI QUYOSH ELEMENTLARI FIZIKASI VA TEXNOLOGIYASI” Toshkent 2002.
2. Avezov R.R., Orlov A. Yu. Colnechnie sistem otopleniya i goryachego vodosnabjeniya. Tashkent. FAN
3. Avezov R.R., Qosimov F.Sh. Koeffitsient teplovoy effektivnosti lotkovix solnechnix vodonagrevatelnix kollektorov s donnim poglosheniem solnechnogo izlucheniya.//Muqobil energiya manbalari va ulardan foydalanishning dolzarb muommolari respublika ilmiy-texnik ganjumani materiallari. Buxoro davlat universiteti. 25-26 noyabr, 2015.
4. Koltun M.M., Solnechno‘e elemento‘, M., Nauka, 1987 god.



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIMIY FAOLIYATLAR
JARAYONIDA BOLALAR IJODKORLIGINI OSHIRISHDA O'YINNING
AHAMIYATI**

Sattorova Sharofat Mamaramovna
Navoiy viloyati Navbahor tumani 9-MTT tarbiyachisi

Annotatsiya: O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat subyekti sifatida shakllana boshlaydi. Mazkur maqola maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ta'limi faoliyatlar jarayonida bolalar ijodkorligini oshirishda o'yinning qanday ahamiyatga eha ekanligi yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'yin, faoliyat, ijodkorlik, o'yinchoq, ta'lism, tarbiya, xarakter, qobiliyat, rivojlanish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi bu o'yindir. Bu yoshidagi bolalarning o'yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va iordaning rivojlanishi jadal kechadi.

O'yin - inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yinni bolalikining hamrohi deb atash ham qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi va kichik yoshdagi bolalarning asosiy faoliyatini tashkil etadi. O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'yin jarayonida bolani hayoloti, xotirasi faol ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatlari namoyon bo'ladi.

Chet el olimlari faylasuflari, sotsiologlari madaniyat tarixchilari tadqiqotlarida o'yinning o'ziga xosligi, uning jamiyat hayoti va alohida shaxs hayotida, insonning madaniyatida tutgan o'rni va ahamyati ko'rib chiqilgan. Rus pedagogi A.S. Makarenko "Bola o'yinda qanday bo'lsa, o'sib ulg'aygach ishda ham ko'pincha, ko'p jihatdan shunday bo'ladi" –deb to'g'ri aytgan edi. A.M. Gorkiy "O'yin bolalar yashayotgan va o'zgartirishi ish lozim bo'lgan dunyoni bilish yo'lidir" – deb bejiz aytmagan. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega. Bu – deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».

Ya.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni masalahat bergen edi.

MTTning pedagogik jarayonda o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lism berishda keng foydalilanadi. O'yin maktabgacha ta'lism tashkilotlarida quyidagilarni amalga oshirishda muhim vazifa kasb etadi.

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashqil etish shaklidir;
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lism va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.
- o'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir.

Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bolaning harakat tajribasi shakllanadi. Unda bir tomonidan turli harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, ikkinchi tomondan, bola rolga kirar ekan, o'z roliga oid hatti-harakatlarni amalga oshirish uchun harakatlardan foydalilanadi. Sahnalashtirilgan o'yin bolaning nutqiga katta ta'sir ko'rsatadi. Uni hamma tushunishi uchun aniq bo'rro gapirishga harakat qiladi.

Har bir o'yin turi bolani qaysidir qobiliyatini ochib berishga xizmat qiladi.

S.A. Shmakovning ta'kidlashicha, o'yinlar quyidagi to'trtta asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya'ni bola o'yinni o'zi tanlaydi, unda faol ishtirot etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki jarayoni muhim ahamyatga ega;



- Ijodiy xarakter, ya`ni o`yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;
- emotsiyonal ta`sir- bola o`yinda markaziy o`rin egallashni xohlaydi, G`olib bo`lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi.

Mashg`ulot vaqtida o`yindan foydalanish yaxshi samara beradi. Ijodkorlikni o`yin faoliyatida yaqqol sezishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab esa o`yin faoliyatida bolalar erkin bo`lishadi. Mahg`ulotda tarbiyachi bolalar ijodkorligini oshirishda avvaldan ma`lum bo`lgan o`yinlardan foydalansa bo`ladi, aksincha o`zi ijodiy yondashgan holda o`yin o`ylab topsa ham bo`ladi.

Misol uchun bolalarga hozir sizlar bilan “mehmonga boramiz” o`yinini o`ynaymiz desangiz, ular tezda bu o`yinga kirishib ketadi. chunki o`yinda qoidalar yo`q ular xohlagan joyiga mehmonga borishni xohlaydi. Ular birinchi navbatda o`zlariga o`yinchoq hamda tengdoshlari orasidan sherik axtara boshlaydi. Guruh-guruh bo`lib o`ynayotgan bolalar o`yinini kuzatar ekansiz, ijodni his ko`rasiz. Ba`zan ular kattalar o`ylab topishi bo`lmagan narsalarni o`ylab topib, o`yinda qo`llaydi, o`yin ular uchun yaxshi imkoniyat hisoblanadi.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarga ta`lim-tarbiya berish jarayonida turli xildagi mashg`ulotlardan foydalaniladi. Matematika, musiqa, tabiat bilan tanishtirish, nutq va savodga o`rgatish va hokozo.

Matematika mashg`ulotlari bolalar uchun qiziqarli, shu bilan birlgilikda murakkab mashg`ulot turi hisoblanadi. Matematika mashg`ulotida o`yinlardan foydalanish bolalarga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. Toshkent 2018-yil
2. Kreativ pedagogika asoslari. M.Usmonboyeva, A.To'rayev. Pedagogika va psixologiya o'quv majmua, 2016 yil
3. Maktabgacha pedagogika. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N. A'zamova .Toshkent-2017

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(11-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиши муддати: 30.06.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000